QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-MAY***
***(DASTLABKI MA'LUMOT)***

**Sanoat statistikasi bo'limi**
**Tel.: (75)-221-32-36**

# Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6994,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 127,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (61,5 %) ni tashkil etdi.







*B-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat, **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 89,5 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 20,0 % ga suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 2,6 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,1 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 826,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da**







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Tabiiy qumlar**




**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Propan, Butan**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy qum, ming t. | 37,4 | 44,4 | 7,0 |
| Neft, ming t. | 11,3 | 12,7 | 1,4 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1069,6 | 601,8 | -467,8 |
| Gaz kondensati, ming t. | 118,0 | 58,1 | -59,9 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 50,6 | 21,4 | -29,2 |
| Propan va butan, ming t. | 61,4 | 52,7 | -8,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4299,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 61,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-may oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 19,4 % (31,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,1 % (3,0 %) va quyi texnologiyalisi – 39,9 % (65,5 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 4,6 marta), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,0 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,9 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,1 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,4 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,0 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 19,4 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %) ni tashkil etdi.

# Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 65,3 ming tonna paxta chigiti (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,5 martaga oshgan), 44,0 ming tonna paxta tolasi (2,6 marta), 5,7 ming tonna Mel (141,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

### Paxta chigiti




### Paxta tolasi




### Paxta linti




### Kaliy xlorid




### Asfaltli aralashmalar




### Oltingugurt




### Og‘irligi 0,94 kam bo‘lmagan polietilen




### Kalava ip




### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




### Aroq




### Uzum vinosi



2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,3 ming tonna Asfaltli aralashmalar ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 117,6 % ga oshgan), 80,7 ming tonna Kaliy xlorid (98,1 %), 0,4 ming tonna Oltingugurt (95,7 %), 50,5 ming tonna Og‘irligi 0,94 dan kam bo‘lmagan polietilen (91,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Og‘irligi 0,94 dan kam bo‘lmagan polietilen, ming t. | 55,4 | 50,5 | -4,9 |
| Asfaltli aralashmalar, ming t. | 3,8 | 15,3 | 11,5 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 65,2 | 62,1 | -3,1 |
| Paxta tolasi, ming t. | 20,9 | 44,0 | 23,1 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 4,4 | 1,6 | -2,8 |
| Kaliy xlorid, ming t. | 82,2 | 80,7 | -1,5 |
| Plastmassa quvurlar, ming t. | 2,3 | 1,4 | -0,9 |
| Ip kalava, ming t. | 11,7 | 13,1 | 1,4 |
| Oltin gugurt, ming t. | 0,4 | 0,4 | 0,0 |

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 14,6 % ga pasaygan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 4,6 martaga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 33,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,5 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 83,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 902,5  mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 145,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,5 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 33,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 106,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,0 % ni, fizik hajm indeksi 50,9 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1673,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*







2020- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % fizik hajm indeksi 88,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 146,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

2020- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 30,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,4 % ni, fizik hajm indeksi 108,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1352,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-may oylarida)*

2020- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 88,6 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 159,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-may oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1814,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (26,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 3877,7 | 5792,0 | 1914,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1343,4 | 1276,2 | -67,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 0,3 | 4,8 | 4,5 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 14,7 | 20,4 | 5,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 138,7 % ga shuningdek, Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 15,7 martaga o‘sishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1356,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,9 % (2020- yil yanvar-may oylarida 3,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 30,8 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 8,1 % ni, Koson tumani 8,0 % hamda Yakkabog' tumanida 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,0 %) darajasidan ko'p Muborak tumani (119,2 %), Shahrisabz tumani (118,5 %), Qarshi tumani (113,9 %) va Qamashi tumanida (111,8 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1356,8 | 100,0 | 107,0 |
| Qarshi sh. | 418,1 | 30,8 | 107,8 |
| Shahrisabz sh. | 90,2 | 6,6 | 102,7 |
| G‘uzor | 33,6 | 2,5 | 105,7 |
| Dehqonobod | 24,8 | 1,8 | 109,6 |
| Qamashi | 55,8 | 4,1 | 111,8 |
| Qarshi | 70,8 | 5,2 | 113,9 |
| Koson | 108,9 | 8,0 | 92,9 |
| Kitob | 71,4 | 5,3 | 111,6 |
| Mirishkor | 47,7 | 3,5 | 108,1 |
| Muborak | 25,9 | 1,9 | 119,2 |
| Nishon | 58,4 | 4,3 | 109,2 |
| Kasbi | 30,1 | 2,2 | 110,5 |
| Chiroqchi | 104,5 | 7,7 | 104,4 |
| Shahrisabz | 109,8 | 8,1 | 118,5 |
| Yakkabog‘ | 106,7 | 7,9 | 101,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib 31,0 % shuningdek, Chiroqchi tumani 8,7 %, Shahrisabz tumani 8,0 % ni, hamda Koson tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Shahrisabz (116,8 %), Muborak (116,7 %), Qarshi sh. (112,2 %) hamda Koson (109,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 500,3 | 100,0 | 106,9 |
| Qarshi sh. | 155,1 | 31,0 | 112,2 |
| Shahrisabz sh. | 27,3 | 5,5 | 102,2 |
| G‘uzor | 12,6 | 2,5 | 100,4 |
| Dehqonobod | 8,3 | 1,7 | 100,5 |
| Qamashi | 21,8 | 4,4 | 101,2 |
| Qarshi | 29,7 | 5,9 | 107,1 |
| Koson | 37,7 | 7,5 | 109,1 |
| Kitob | 29,0 | 5,8 | 105,2 |
| Mirishkor | 17,8 | 3,6 | 100,2 |
| Muborak | 9,1 | 1,8 | 116,7 |
| Nishon | 22,7 | 4,5 | 102,5 |
| Kasbi | 11,0 | 2,2 | 108,0 |
| Chiroqchi | 43,6 | 8,7 | 100,6 |
| Shahrisabz | 40,0 | 8,0 | 116,8 |
| Yakkabog‘ | 34,6 | 6,9 | 98,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 30,7 % ni, shuningdek, Yakkabog‘ tumani 8,4 % ni, Koson tumani esa 8,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining oʻsish surʼatida eng yuqori koʻrsatkich Muborak tumani (120,5 %), Qamashi (119,8 %), Shahrisabz (119,5 %), Qarshi (119,4 %) hamda Kitob (116,4 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar boʻyicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va oʻsish surʼati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. soʻm | Ulushi % da | Oʻsishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 856,6 | 100,0 | 107,5 |
| Qarshi sh. | 263,1 | 30,7 | 105,5 |
| Shahrisabz sh. | 62,9 | 7,3 | 105,8 |
| Gʻuzor | 21,0 | 2,5 | 109,1 |
| Dehqonobod | 16,5 | 1,9 | 114,9 |
| Qamashi | 34,0 | 4,0 | 119,8 |
| Qarshi | 41,1 | 4,8 | 119,4 |
| Koson | 71,2 | 8,3 | 86,2 |
| Kitob | 42,4 | 5,0 | 116,4 |
| Mirishkor | 29,9 | 3,5 | 113,5 |
| Muborak | 16,8 | 2,0 | 120,5 |
| Nishon | 35,6 | 4,2 | 114,0 |
| Kasbi | 19,2 | 2,2 | 111,9 |
| Chiroqchi | 60,9 | 7,1 | 107,4 |
| Shahrisabz | 69,8 | 8,2 | 119,5 |
| Yakkabogʻ | 72,1 | 8,4 | 112,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1220,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 6994,4 | 100,0 | 127,4 |
| Qarshi sh. | 1179,0 | 16,8 | 120,7 |
| Shahrisabz sh. | 103,5 | 1,5 | 103,5 |
| G'uzor | 1265,9 | 18,1 | 115,4 |
| Dehqonobod | 217,0 | 3,1 | 100,5 |
| Qamashi | 154,9 | 2,2 | 106,5 |
| Qarshi | 379,0 | 5,4 | 128,8 |
| Koson | 289,5 | 4,2 | 87,7 |
| Kitob | 94,7 | 1,4 | 102,2 |
| Mirishkor | 161,2 | 2,3 | 134,7 |
| Muborak | 202,5 | 2,9 | 72,7 |
| Nishon | 1942,1 | 27,7 | 175,0 |
| Kasbi | 524,2 | 7,5 | 2,2 m |
| Chiroqchi | 162,8 | 2,3 | 111,4 |
| Shahrisabz | 132,5 | 1,9 | 107,1 |
| Yakkabog' | 185,6 | 2,7 | 120,2 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,2 martaga), Nishon (175,0 %), Mirishkor (134,7 %), Qarshi (128,8 %), Qarshi sh. (120,7 %) va Yakkabog‘ (120,2 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

### Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,7 % i) hamda G‘uzor (18,1 %), Qarshi sh. (16,8 %), Kasbi (7,5 %) va Qarshi (5,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Kitob (1,4 %) hamda Shahrisabz shahriga (1,5 %) to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (12 444,6 ming so‘m), G‘uzor (6 082,9 ming so‘m), Qarshi shahrida (4 229,7 ming so‘m) hamda Kasbi (2 629,5 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 092,9 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | Istemol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 2 092,0 | 406,0 |
| Qarshi sh. | 4 229,7 | 1 504,5 |
| Shahrisabz sh. | 735,9 | 673,2 |
| G‘uzor | 6 082,9 | 362,3 |
| Dehqonobod | 1 445,5 | 171,1 |
| Qamashi | 563,1 | 232,9 |
| Qarshi | 1 494,9 | 252,2 |
| Koson | 994,0 | 235,5 |
| Kitob | 354,4 | 263,0 |
| Mirishkor | 1 323,7 | 388,4 |
| Muborak | 2 291,5 | 308,4 |
| Nishon | 12 444,6 | 412,1 |
| Kasbi | 2 629,5 | 140,0 |
| Chiroqchi | 386,7 | 250,4 |
| Shahrisabz | 589,5 | 423,4 |
| Yakkabog‘ | 696,5 | 403,8 |

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 406,0 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi sh. – 1 504,5 ming so‘mni, Shahrisabz sh. – 673,2 ming so‘mni, Shahrisabz tumanida – 423,4 ming so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-may oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 385,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 97,6 %), Yakkabog‘ (82,7 %), Shahrisabz shahri (78,9 %), Shahrisabz (78,4 %), Mirishkor (78,1 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon (3,4 %), G‘uzor (4,4 %), Kasbi (5,4 %) va Dehqonobod (11,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- iyun holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4560 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 848 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 % i) Qarshi shahriga, 507 tasi (11,1 %) Kitob tumaniga, 408 tasi (8,9 %) Yakkabog‘ tumaniga, 392 tasi (8,6 %) Chiroqchi tumaniga, 363 tasi (7,9 %) Shahrisabz shahriga, 323 tasi (7,0 %) Qarshi tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 838 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 140 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,7 %) Qarshi shahrida, 81 tasi (9,6 %) Kasbi tumanida, 74 tasi (8,8 %) Chiroqchi tumanida, 72 tasi (8,6 %) G‘uzor tumanlarida tashkil etildi.